

Bugun barcha muzeylar tashrifchilar uchun bepul xizmat ko'rsatadi



Bugun barcha muzeylar tashrifchilar uchun bepul xizmat ko'rsatadi

18 may – Xalqaro muzeylar kuni bo'lib, u 1977 yildan beri nishonlab kelinadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 100 dan ortiq muzey faoliyat yuritadi. Ular orasida Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan Termiz arxologiya muzeyi hamda Surxondaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi eng mashhurlari hisoblanadi.

Bugun ushbu muzeylarda “Ochiq eshiklar kuni” o'tkazilib, tashrif buyuruvchilar uchun bepul xizmat ko'rsatadi.

Tarix va bugunni bevosita bog'lab turuvchi, insoniyatning ibtidosidan to bugungi kunigacha tilsiz hikoya qiluvchi xotiralarni o'zida asrab kelayotgan ushbu muzeylarimiz ekspozitsiyasi bilan tanishish uchun ajoyib imkoniyatni qo'ldan boy bermang!

Ma'lumot uchun, qonunchilikka ko'ra, haftaning har seshanba va juma kunlari 18 yoshgacha bo'lgan bolalar va ularga hamrohlik qiluvchi ota-onalar muzey ashyolari va kolleksiyalarini kirib ko'rish uchun davlat muzeylariga bepul kiritiladi.